

# ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA TAMSIL SAN'ATINING FAOL QO'LLANILISHI

Haydarova Shahzoda Ixtiyorovna

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Filologiya  
yo'nalishi  
4-bosqich talabasi

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining ilk bosqichlaridan biri hisoblangan “G’aroyib us-sig‘ar” devonidagi tamsil san’ati tahlil qilinadi. Tadqiqotda devondagi g‘azal va boshqa she’riy shakllarda uchraydigan ramziy obrazlar, hayvonlar va predmetlar orqali berilgan ma’naviy-axloqiy g‘oyalar yoritib beriladi. Muallif Navoiy tamsil san’ati vositasida insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va tasavvufiy tushunchalarni badiiy uslubda ifoda etganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, shoirning tamsiliy obrazlar orqali ijtimoiy tanqid, ma’rifatparvarlik va ruhiy poklanish g‘oyalarini ilgari surgani maqola asosiy diqqat markazida turadi. Maqola “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi ayrim g‘azallar tahlili asosida Navoiyning badiiy tafakkuri va tamsil yaratishdagi mahoratini yoritadi hamda shoirning bu boradagi adabiy merosini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Kalit so’zlar:** Ilmi badi’ ,g’azal, tamsil san’ati, misol (dalillash) usuli

## ANNOTATION

This article analyzes the figurative art in the “G’aroyib us-sigar” divan, which is considered one of the first stages of Alisher Navoi’s work. The study highlights the spiritual and moral ideas conveyed through symbolic images, animals and objects found in the divan, ghazals and other poetic forms. The author shows that Navoi

expressed human qualities, moral values, social relations and mystical concepts in an artistic style through figurative art. In particular, the main focus of the article is on the poet's promotion of the ideas of social criticism, enlightenment and spiritual purification through figurative images. The article, based on the analysis of some ghazals in the "G'aroyib us-sigar" divan, illuminates Navoi's artistic thinking and skill in creating imagery and serves to provide a deeper understanding of the poet's literary heritage in this regard.

**Keywords:** Ilmi badi', ghazal, representational art, example (proof) method

## KIRISH

Maqsud Shayxzodaning ta'biricha, Nizomiddin mir Alisher Navoiy-g'azal mulkining sultonii. Uning yaratgan g'azallari mavzu ko'lami, g'oyasi, tasavvufiy yo'nalihsning yetakchilik qilishi va she'riy san'atlarning faol qo'llanilishi bo'yicha yetakchilik qilishi barchamizga ma'lum. Xalq orasida „Chor devon,, nomi bilan mashhur „Xazoyin ul-maoniy kulliyotida katta hajmni tashkil etadigan g'azallarida mumtoz adabiyotning gultoji hisoblangan she'riy san'atlarning deyarli barchasi betakror va faol qo'llanilgan. Jumladan, tamsil san'ati deyarli har bir g'azalida, yoyinki bir g'azalining o'zi boshdan oxirgacha barcha baytlariga bezak bergan.

## Muhokama va natijalar

Tamsil (ar. - misol keltirish, dalillash) - she'r baytining birinchimisrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisanimisol qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at. Bunda birinchi misradagi fikrbilan keltirilgan misol o'rtasidagi munosabat, ya'ni mantiqiy aloqa ko'pinchaqiyosiy yo'nalihsda bo'ladi. Tamsil san'ati mohiyatiga ko'ra irsolli masal san'atigao'xshab ketsa-da, fikrning, maqsadning isboti uchun hayotiy dalillar keltirishibilan undan farqlanadi, chunki irsolli masalda mashhur maqol, hadis yoki hikmat dalil sifatida keltiriladi. Tamsil haqidagi dastlabki ma'lumot Shams QaysRoziyning "Al-mo'jam" (1218-1233)

asarida keltirilgan bo‘lib, muallif tamsilniistioraning bir turi sifatida sanab o‘tadi: “Ushbu san’at ham istioralarga mansubdir.Faqat u istioraning misol keltirish bilan bog‘liq turi bo‘lib, agar Shoir biror fikrgaishora qilmoqchi bo‘lsa, boshqa ma’noni anglatuvchi so‘zlarni shu fikrga monandqilib keltiradi va shu orqali o‘zi maqsad qilgan ma’noni ifodalaydi”. Aynan shukabi fikrlar ilmi badi’ga doir boshqa manbalar: Husayn Voiz Koshifiyning “Badoyi’ ul-afkor” (15-a.) va Atoulloh Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi” (15-a.) asarlarida ham takrorlangan. Alisher Navoiy ijodida tamsil san’atining istifoda etilishi alohida jihat kasb etadi. Shoir lirkasida ushbu san’atning qo‘llanilishidajanlararo tabaqlanish mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, poetik dalillash g‘azal janrida, asosan, bir bayt doirasida ko‘rinsa, qit'a va ruboiyda bir she'rdoirasida, tarji'bandda esa har bir band doirasida namoyon bo‘ladi, lekin takrorlanuvchi maqta'-bayt tufayli bandlar bir-biri bilan bog‘lanib keladi. Natijada maqta'dagi mazmunni dalillash musalsal, ya'ni bosqichli holat kasb etadi<sup>1</sup>. Yo.Is’hoqov). Masalan, quyidagi misolda dalillash usuli g‘azaldagi bayt doirasidanamoyon bo‘lmoqda:

Zaxmim ichra qoldi paykoning, ne yanglig‘ butkay ul,

Chunki qo‘ymas yorag‘a yopushqali marhamni su.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 511-g‘azal

Quyidagi ruboiyda esa tamsil san’ati yaxlit bir she'r doirasida qo‘llanilganligini kuzatamiz:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,

El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish.

---

1. Is’hoqov Yo. So’z san’ati so’zligi. Toshkent-. “Zarqalam”

Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bulbulg‘a tikandek oshyon bo‘lmas emish.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 55-ruboiy).

Navoiy qit'alarida tamsil san'ati muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu janrda ijtimoiy tarbiyaviy mazmun, pand-nasihat ruhi yetakchilik qiladi va shu sababli har bir muhim fikr va xulosa hayotiy hodisalar bilan dalillanadi. Masalan, quyidagi qit'ada birinchi baytda Shoir aytmoqchi bo‘lgan fikr-xulosa bayon qilingan bo‘lsa, keyingi baytlarda uning dalil-isboti keltirilgan<sup>2</sup>:

Yuz tuman nopoq erdin yaxshiroq

Pok xotunlar ayog‘ining izi,

Lut o‘g‘lin ko‘rki soldi tiyralik

Ding‘a nafs ilgida tab'i ojizi.

Dahr aro yoqtisi siyodat mash'alin,

Pokravliqtin rasululloh qizi.

(“Navodir ush-shabob”, 9-qit'a)

Navoiy ijodining badiiy qimmati, shoir san'atkorligining o‘ziga xos qirralari uning badiiy tasvir vositalari va san'atlardan amaliyotda foydalanish yo‘llarida yanada konkretrq namoyon bo‘ladi. Navoiy lirkasida yuzdan ortiq badiiy san'atlarqo‘llanilgan bo‘lib, ularning ayrimlari misolida ham shoir badiiy tafakkuriningyuksak darajasi haqida tasavvur hosil qilish mumkin bo‘ladi. Alisher Navoiydevonlarda mohiona foydalanganini ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida ham bir qancha san'atlar jumladan, tamsil san'atidan hammoirona foydanilgani ko‘rishimiz mumkin. Bu devonning boshidan bu san'atning qo‘llanilgani Navoiyning qanchalik mohirona shoir ekanligi ko‘rishimiz mumkin. Shoir lirkasida tamsil san'atining qo‘llanilishida janrlararo tabaqlananish mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, poetik dalillash g‘azal janrida, asosan,

birbayt doirasida ko‘rinsa, qit'a va ruboiyda bir she'r doirasida, tarji'bandda esa har birband doirasida namoyon bo‘ladi, lekin takrorlanuvchi maqta'- bayt tufayli bandlarbirbiri bilan bog‘lanib keladi. Natijada maqta'dagi mazmunni dalillash musalsal,ya'ni bosqichli holat kasb etadi (Yo.Is'hoqov) Masalan, quyidagi misolda dalillash usuli g‘azaldagi bayt doirasida namoyon bo‘lmoqda:

Ko‘zum yoshardi,ayon bo‘lg‘ach ul jamoli bade’,

Bulutqa su to‘lar ul damki, bo ‘ldi fasli rabe’.

Baytni tahlil qilsak: ul yorning go‘zal,nafis jamoli oshiq ko‘z oldida namoyon

bo‘larkan, xuddi qaqroq yerlarga obodlik bag‘ishlovchi bahor fasli kelgach, abrinaysonlar

---

2 . Sirojiddinov Sh va boshqa. Navoiyshunoslik. -Toshkent: " Tamaddun" 2018, -520 b.

rahmat yomg ‘iri bilan to‘lganiday oshiq ko‘zi yosh bilan to‘ladi.Bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin. Alisher Navoiy ijodida tamsilsan’ati keng qo‘llanilgan bo‘lib,ushbu badiiy tasvir vositasining shoir na’t g‘azallarida qo‘llanish holatlarini ko‘rib chiqamiz:

Yuzungdin anjum, anjumdin quyosh nur iqtisob aylab,

Aningdekkim, quyoshdin oy-u, oydin qiyrgun g‘abro.

(“ G‘aroyib us-sig‘ar” , 7-g‘azal)

Ushbu baytning ikkinchi misrasi birinchi misraga misol tariqasida keltirilgan .

Baytning mazmuni shunday : Payg‘ambarimizning go‘zal yuzlari shu darajada yorqin,nurlichi, yuzidan yulduzlar, yulduzlardan quyosh nur oladi . Va bufikrni dalillash

uchun hayotiy misol sifatida oyning quyoshdan nur olishi-yu , oytufayli zulmat qa’ridagi butun yer yuzining charog‘on bo‘lishi misol sifatidakeltirilgan.

Yo‘q bo‘ldi kalomingdin asfori samo barcha

Asfori samoviydin bo‘lg‘an kebi yo‘q pojand.

( “G‘aroyib us-sig‘ar”, 114-g‘azal)

Bayt mazmuni : sening so‘zlaridan asfori samo - samo kitoblari ( Tavrot , Injil,

Zabur ) yo‘q bo‘ldi , xuddi “Avesto” samo kitoblari orasida sanalmagani

kabi .Bilamizki, payg‘ambarimizga haq din - Islom dini va haq kitob - Qur’oni

Karim nozil bo‘lgandan keyin undan oldingi samoviy kitoblarning barchasi “yo‘q bo‘ldi”, ya’ni inkor etildi. Ushbu baytda bu holat zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lgan “Avesto“ boshqa samoviy kitoblar oldida o‘z qimmatini yo‘qotganikabi, islom dinidan oldingi muqaddas kitoblar ham inkor qilinganligi misol qilib keltirilgan.

Yoki:

Vodiyi ishqning makon qildi ko‘ngil ko‘rgach yuzing,

El biyobon ichra manzil aylagandek su ko‘rib.

(“G‘aroyib us-sig‘ar”, 58-g‘azal)

Bayt mazmuni: Oshiqning qalbi go‘yo “ishq vodiysi”ga aylangan- bu kuchli tuyg‘u va muhabbatning qalbni to‘liq egallaganligini bildiradi. Buning sababi esa ma’shuqaning go‘zal yuzini ko‘rishdir. Shoir oddiygina bir nigohni, bir diydorni “el biyobon ichra manzil aylagandek” deb tasvirlaydi. Tamsil san’ati orqali

oddiygina bir ko‘rishni ham go‘zal san’at qilishi mumkinligini ko‘ramiz.

Chiqli zulfin solg‘ach ul chohi zanaxdondin ko‘ngul,

Ankabut ul navi’kim, torig’a chiqqay yormashib.

(“G’aroyib us-sig’ar”, 61-g’azal)

Bayt mazmuni:Lirik qahramon ma’shuqaning sochini yoyganini, ya’ni zulfini solganini ko‘rgach, bu holat oshiqning qalbiga ta’sir qilgan- ko‘ngil go‘yo o‘saiyak chuqurchasidan chiqib ketgan. Shoir bu holatni tuzog’ga tushurish uchun to‘rini yoyib turgan o‘rgimchakka o‘xhatadi. Bu o‘xhatish esa tamsil san’ati sanaladi.

Jamolin vasf etarmen hamdamim ul gul’ uzor o‘lg’ach,

Quruq shox o‘ylakim, zohir qilur gullar, bahor o‘lg’ach.

(“G’aroyib us-sig’ar”, 97-g’azal)

Bayt mazmuni:Men sening go‘zalligingni faqat sen yo‘q bo‘lgach tasvirlayman, Lirik qahramon o‘zini bahor o‘tib ketgach gullab turgan quruq shoxga o‘xhatadi.Bahor (ma’shuqa) bo‘lmasa, shoxda (oshig’dan) hech qanday hayot bo‘lmaydi. Bu yerdagi lirik qahramon o‘zini bahor o‘tib ketgach gullab turgan quruq shoxga o‘xhatishi tamsil san’atining mohirona qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz.

Yuqoridagi g’azallarda faqat bayt doirasida kelayotgan bo‘lsa quyidagi g’azalda

boshdan oyoq tamsil san’atidan mohirona foydanilganini Navoiyning naqadar iste’dod egasi ekanligini ko‘rishimiz mumkun:

Ko‘ngillar nolasi zulfiq kamandin nogahon ko‘rgach,

Erur andoqki,qushlar qichqirishqaylar yilon ko‘rgach.

Bayt mazmuni:Shoir aytadiki, oshiq qalblar to‘satdan sening zulfiqning ko‘rsa,vahimaga tushib fig’on chekadi. Tamsil san’ati orqali bu holatni ilonni ko‘ribvahimaga tushgan qushalarning chinqirig’iga o‘xhatadi.

Ko‘ngil chokin ko‘zumda ashki rangin elga fosh etdi,

Balig' zaxmini fahm aylarlar el daryoda qon ko‘rgach.

Bayt mazmuni: Oshiq yurakdagi sirini, dardini hech kimga aytmaydi. Biroq , uning ko‘zlaridan to‘kilgan qonli yosh -ashki rangin- bu dardni elga oshkor qiladi. Ya’ni,ko‘z yoshi ko‘ngildagagi og’riqning dalilidir. Shoir bu holatni go‘zal bir tamsil orqali ifodalaydi: Qandayki, odamlar daryoda qon ko‘rsalar, baliq yaralanganini tushunadilar-xuddi shunday odamlar ham ko‘z yoshi orqali qalbidagi dardni fahmlaydilar.

Ko‘zum qon yosh to‘kar, netib ko‘ngil zaxmin yashuraykim,

Toparlar yerda zaxmin sayd qonidin nishon ko‘rgach

Bayt mazmuni: Yuragimdagи chuqur jarohatni yashirishga harakat qilaman, lekin ko‘zlarimdan qonli yosh to‘kilmоqda- bu hol mening dardimni baribir fosh etmoqda.

Tamsil san’ati orqali bu holatni ovchilar o‘ljaning qon izidan uning qayerda ekanini topishsa, ko‘z yoshim ham yurakdagi dardimni fosh etmoqda deydi.

Bo‘yolg'on qon aro jon pardasi yetgach g'ami hajring,

Ko‘ngil bog'ida bargedurki, ol o‘lmish xazon ko‘rgach.

Bayt mazmuni: Sening hijrondan kelgan g‘aming jonim pardasigacha yetib bordi, yuragim qon bilan bo‘yaldi. Bu holatni tamsil san’ati orqali kuzda olov ichida qolgan bargdekman, deb izohlaydi.

Xadanging zaxmi ichindin balolarni yug'on yoshim

Erur tifleki, olg'ay qush bolasin oshyon ko‘rgach.

Bayt mazmuni: Sening o‘qingdan (xafangdan) olgan jarohatimdan shunchalar ko‘p yosh to‘kdimki, Go‘yo bu yoshim, inini ko‘rib parvoz qiladigan qush bolasidek ulg‘aygandek

bo‘ldi. Bu go‘zal o‘xshatish orqali tamsil san’ati yaratilganini ko‘rishimiz mumkin .

Ko‘ngillar naqdini toroj etarga yopmog‘ing burqa‘

Aningdekdurki toz bog‘lar qaroqchi karvon ko‘rgach.

Bayt mazmuni: Baytda mahbuba (yopmog‘ing burqa‘) o‘z go‘zalligini yashirsa ham, bu oshiq ko‘nglini o‘ziga tortib, dildan “naqd”ni — ya’ni sof muhabbatni tortib olishiga sabab bo‘ladi. Bu holat tamsil san’ati orqali to‘z bog‘larning qaroqchi karvonni ko‘rib, uni talashga tayyorlanishiga o‘xshatiladi.

Yuzin zulf ichra to ko‘rdim,o‘lib vasrdim,o‘lib vasliga yetmasmen,

G’alat ermissiz yuz urmog, kecha o‘tni har qayon ko‘rgach.

Bayt mazmuni: Soching orasidan yuzingni bir ko‘rganimdan beri sog‘inchda o‘lib yashayman, ammo hali ham senga yetganim yo‘q. Bu holatni tamsil san’ati orqali

kecha har joyda o‘tni ko‘rib, yuz urganim rost bo‘lmasa kerak — bu ishim g‘alati ekan.

Erur chun olam ichra joh foni, yaxshi ot boqiy,

Bas,el komin ravo ayla, o‘zingni komron ko‘rgach.

Bayt mazmuni: Agar bu dunyoda martaba (joh) foni bo‘lsa, yaxshi nom esboqiybo‘ladi. Shunday ekan, o‘zing baxtga erishganiningda, boshqalarning ham istagini bajo keltir.

Navoiy,xurdai nazmingni andoq aylading tahrir,

Ki sochqay xurda boshing uzra shohi xurdadon ko‘rgach.

Bayt mazmuni: Ey Navoiy, sen o‘zining nozik, mayin she’rlaringni shunday go‘zal

bezadingki, bu holatni tamsil orqali xuddi shoh ham u she'rlarni ko'rib, boshiga javohirdek sochgan bo'lurdi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak , buyuk mutafakkir ijodida qo'llangan

badiiy san'atlar ,jumladan, tamsil san'ati o'zining badiiy go'zalligi, poetik jozibadorligi bilan bir qatorda o'quvchi ong-u shuuriga ko'rsatadigan ma'naviy ta'siri bilan ham ahamiyatlidir. Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" devonida tamsil san'atini o'ziga xos uslubda qo'llagan bo'lib, bu san'at uning ijodida chuqur ma'naviy va falsafiy mazmunni ifodalashda muhim o'rin tutgan. Tamsil san'ati murakkab tushunchalar yoki abstrakt g'oyalarni oddiy va tushunarli obrazlar orqali ifodalash san'atidir. Navoiy o'z she'rlarida tabiat hodisalari, hayvonlar va kundalik voqealarni mahorat bilan tamsil sifatida ishlatib o'quvchiga yanada aniq va teran ma'no yetkazishga harakat qilgan. Natijada, "G'aroyib us-sig'ar" devonida tamsil san'atining qo'llanilishi Navoiy ijodining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, uning she'riyatida falsafa, estetik go'zallik va ma'naviy teranlikning uyg'unligi sifatida ko'zga tashlanadi. Bu san'at orqali shoir nafaqat o'z davrining buyuk shoiri,balki chuqur mutafakkir ekanini ko'rsatadi va uning asarlari bugungi kunda ham beqiyos badiiy meros sifatida qadrlanadi.

### Foydanilgan adabiyotlar:

- 1.Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. Toshkent,2005
- 2.Karimov I. Tamsil san'ati va uning rivojlanishi.Samarqand,2011
3. .Shuhrat Sirojiddinov va boshqa. Navoiyshunoslik. -Toshkent:  
" Tamaddun" 2018, -520 bet
4. .Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent-.“Zarqalam”
- 5.Rahimov S. G'aroyib us-sig'ar: badiiy tahlil.Toshkent. 2016

6.Komolov N. Ma'nolar olamiga safar.-T, Tamaddun, 2012

7.Salohiy D.Navoiy nazmiyoti.-Toshkent,2012.

8.<https://www.natlib.uz>

9. Navoiyshunoslik kanali.t.me/navoiyshunoslik\_rasmiy